

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.06/29.10.2021.V.139.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
TOSHKENT FILIALI**

**XO‘JAXONOV SHOXRUXON IDRISXO‘JA O‘G‘LI**

**FARG‘ONA VILOYATI PARRANDACHILIK XO‘JALIKLARIDA TOVUQ  
KOLIBAKTERIOZINING EPIZOOTOLOGIYASI VA OLDINI OLISH  
CHORA TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH**

16.00.03 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,  
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi

Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
**AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences**

**Xo‘jaxonov Shoxruxxon Idrisxo‘ja o‘g‘li**

Farg‘ona viloyati parrandachilik xo‘jaliklarida tovuq kolibakteriozining epizootologiyasi va oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish.....3

**Хужахонов Шохрузхон Идрисхужа угли**

Разработка эпизоотологических и профилактических мероприятий по колибактериозу кур на птицефабриках Ферганской области.....21

**Khujakhonov Shohruxhon Idriskhuja ugli**

Development of epizootological and preventive measures for colibacteriosis of chickens in poultry farms of the Ferghana region. ....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....45

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.06/29.10.2021.V.139.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
TOSHKENT FILIALI**

**XO‘JAXONOV SHOXRUXON IDRISXO‘JA O‘G‘LI**

**FARG‘ONA VILOYATI PARRANDACHILIK XO‘JALIKLARIDA TOVUQ  
KOLIBAKTERIOZINING EPIZOOTOLOGIYASI VA OLDINI OLISH  
CHORA TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH**

16.00.03 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,  
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi

Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
**AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.4.PhD/V107 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) ilmiy kengash veb sahifasida ([www.viti-rasmiy.uz](http://www.viti-rasmiy.uz)) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Davlatov Ravshan Berdievich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Salimov Ilxom Xaitovich**  
veterinariya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Mamatova Zamira Baratovna**  
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.06/29.10.2021.V.1369.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "29" 08 soat 1400 dagi majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 141500. Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog'i 67 uy. Tel: (+99866) 666- 56-66; e-mail: nivi@vetgov. uz)

Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (47252 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141500. Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog'i 67 uy. Tel: (+99866) 666- 56-60; faks: (+99866) 666-56-66).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "19" 08 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "19" 08 dagi № 23 raqamli reestr bayonnomasi)



**B.A.Elmurodov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, vet.f.d., professor

**F.S.Pulotov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, vet.f.f.d. (PhD), katta ilmiy  
xodim

**G.X.Mamadullaev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,  
katta ilmiy xodim

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida parrandachilik sanoati o'zgacha tarzda rivojlanishi bilan bir qatorda parrandalar sonining sezilarli darajada oshishi, go'sht va tuxum ishlab chiqarishning o'zgarishiga ko'p holatlarda infeksiyon kasalliklar sabab bo'lmoqda. Soha olimlari orasida infeksiyon, yuqumsiz va invazion kasalliklarni oldini olish, ekologik jihatdan toza parxezbop parranda maxsulotlarini ishlab chiqarish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. «Butun jahon hayvonlar sog'lig'ini saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, sanoat parranchiligi yo'nalishida uchraydigan kasalliklarning 29 foizini ovqat hazm qilish a'zolarida kuzatilsa, 30 foizi nafas olish a'zolarida, qolgan 41 foizi boshqa turdagi patologiyalar ko'rinishida uchraydi»<sup>1</sup>.

Dunyo miqyosida parrandachilik fermalari va aholi qaramog'idagi tovuqlar orasida turli xildagi infeksiyon kasalliklarni oldini olish va davolashning samarali usullarini ishlab chiqish hamda parrandalar bosh sonini ko'paytirish, intensiv parrandachilikni jadal rivojlantirish hisobigagina parrandachilikda rentabellikni oshirilishiga erishildi. Bu borada er yuzining turli mintaqalarida parrandachilik fermalarida parvarish qilinayotgan turli zotli parrandalar alohida ahamiyatga ega. Shu bosidan turli parranda zotlarida uchraydigan infeksiyon kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, davolash va oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Tovuqlarni turli xildagi infeksiyon kasalliklardan, jumladan kolibakteriozdan asrash zarurati tufayli hududlarda mavjud *E.colining* tarqalish darajasini aniqlash va yuqori samarali preparatlardan foydalangan holda kasallikning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish ustida ko'plab mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida parrandachilikni jadal rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda parrandalar soni va mahsuldorligini ko'paytirish, shuningdek parrandalarning turli xil infeksiyon kasalliklarini oldini olish hamda parrandachilikni rivojlantirishda tizimli tadbirlarni yo'lga qo'yilishiga erishildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra tovuqlar orasida kolibakterioz bilan zararlanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, parrandachilik xo'jaliklarida sezilarli darajada iqtisodiy zarar kuzatiladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, parrandachilikni rivojlantirish, chorvachilik mahsulotlariga (go'sht, sut, tuxum) bo'lgan talabni qondirish maqsadida hukumatimiz tomonidan parrandachilik sohasida faqatgina tovuq yetishtirish bilan cheklanib qolmasdan, boshqa parranda turlari, xususan, kurka, bedana, g'oz, o'rdak, tuyaqush va kaklik yetishtirishni ham ommalashtirish davr talabi bo'lganligi sababli bir qator qarorlar ishlab chiqilgan.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4015-sonli qarorida<sup>2</sup> ta'kidlab o'tilganidek, 2019-yilda

<sup>1</sup> Butun jaxon hayvonlar sog'lig'ini saqlash tashkilotining ma'lumoti. 2014 y.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4015-sonli qarori

parrandalar soni va etishtiriladigan mahsulotlar prognoz ko'rsatkichlariga asosan jami parranda bosh soni – 81 mln ga, tuxum etishtirish - 7,5 mlrd donaga, shundan naslli tuxum - 293,6 mln dona, parranda go'shtini ishlab chiqarish hajmi – 191,5 ming tonnaga, 1 kunlik jo'ja etishtirishni esa – 235 mln boshga etkazish zarurligi belgilab berilgan, bundan tashqari 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-son «Parrandachilik sohasini yanada qo'llab quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kopersiya tizimini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida»<sup>3</sup>gi farmoni, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 15-iyundagi PQ-281-son «Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-sonli “Parrandachilik sohasini yanada qo'llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa huquqiy-me'yoriy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya doirasidagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganganlik darajasi.** Parrandalar kolibakteriozining tarqalishi, klinik belgilari, patomorfologik o'zgarishlari, tashxislash, davolash va qarshi kurash muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar bir qator xorijiy olimlar, jumladan A.N.Linton, M.Garsia., E.K.Goren., M.Minion, J.F.Braga, P.S.Santander, M.W.Shirley, B.Mohan, O.YAvuz., S.L.Alfonzo. MDX olimlaridan V.A.Bakulin, V.F.Gluxov, B.F.Bessabarov, J.N.Akopyan, P.V.Kargil, A.I.Churin, A.A.Chernikov, P.P.Kostenko Respublikamiz olimlaridan I.D.Burluskiy, F.I.Ibodullaev, X.K.Burxonova, F.A.Niyazov, Sh.M.Shukurov, S.A.Kubaeva, H.S.Salimov, R.B.Davlatov, B.N.Axmedov, X.U.Murodov va boshqalar tomonidan olib borilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan nazariy va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Respublikaning Farg'ona viloyati hududi misolida tovuqlar kolibakteriozining epizootologiyasi, kasallikka qarshi kurash, oldini olish chora-tadbirlari, tuxum maxsuldorligiga ta'sir etuvchi omillar, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlar, gematologik va biokimyoviy tekshirishlar, qo'zg'atuvchining serotiplari hamda oldini olish va davolashda samarali vositalar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy-ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining PZ-202012141 raqamli «Parranda va quyonlar kasalliklarini oldini oluvchi va davolovchi ekologik toza mahalliy probiotiklar

---

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi «Parrandachilik sohasini yanada qo'llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-238-son qarori.

yaratish» (2021-2024 y.y.) innovacion loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Fargʻona viloyati parrandachilik xoʻjaliklari sharoitida hamda xususiy sektorlarda tovuqlar kolibakteriozining epizootologiyasi, klinik belgilari, patologoanatomik oʻzgarishlari, tuxum mahsuldorligiga taʼsir etuvchi omillar, hudud boʻyicha *E.colining* serotiplarini tarqalishi, shuningdek oldini olishda samarali antibiotiklardan foydalanish, gemotologik va biokimyoviy koʻrsatkichlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.**

Fargʻona viloyati parrandachilik xoʻjaliklarida tovuqlar kolibakteriozining epizootologiyasini oʻrganish;

Tovuqlar kolibakteriozini kechishi, klinik belgilari va qiyosiy patologoanatomik oʻzgarishlarini oʻrganish;

Tovuqlar kolibakteriozini tuxum mahsuldorligiga taʼsir etuvchi omillarni oʻrganish;

Tovuqlar kolibakteriozida gemotologik hamda biokimyoviy oʻzgarishlarini oʻrganish;

Fargʻona viloyatida mavjud parrandachilik xoʻjaliklarida *E.colining* serotiplarini aniqlash;

Tovuqlar kolibakteriozini oldini olishda antibiotiklarning samaradorligi va unga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obʻekti** Fargʻona viloyati parrandachilik xoʻjaliklaridagi tovuqlar kolibakteriozi bilan zararlangan parrandalarning qoni, kasallangan toʻqima, tuxum, fekalij va ichki aʼzo namunalari.

**Tadqiqotning predmeti** *E.coli* bilan zararlangan tuxum, parrandalar va hudud. Tovularning kolibakteriozida epizootologik, klinik, biokimyoviy, bakteriologik, serologik va patologoanatomik oʻzgarish koʻrsatkichlari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlarda klinik, epizootologik, biokimyoviy, bakteriologik, immunologik, patologoanatomik, serologik va statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Fargʻona viloyatining parrandachilik xoʻjaliklaridagi tovuqlarda kolibakteriozning tarqalish koʻrsatkichi, tekshirilgan 101100 bosh parrandalar soniga nisbatan oʻrtacha 0,93 foizni tashkil qilishi aniqlangan;

Kolibakterioz bilan kasallangan 180 kunlikdan katta tovuqlarda yurakda fibrinli perikardit, ichaklar va taloqda nuqtali qon quyilish, koʻpayish organlarida sariq peritonit shakllanishi kabi patologoanatomik oʻzgarishlar aniqlangan;

Fargʻona viloyati parrandachilik xoʻjaliklari hamda xususiy sektorlarda *E.colining* O1, O26 va O78 serotiplari aniqlangan O1 serotipidan 21,3 %, O26 turidan 36,48 va O78 serotipidan 39,98 foiz kam holatlarda boshqa esherixiyalar (O8, O9, O15-2,24%) bilan zararlanishi aniqlangan;

Kolibakterioz bilan kasallangan tovuqlar qonida leykoцитlar sonining dastlabki kunlaridan meʼyorga nisbatan 0,86 foizga oshgani hamda tovuqlarning tuxum mahsuldorligi 5,33 foizga kamayishi aniqlangan;

Kolibakteriozdan kasallangan tovuqlar qonining biokimyoviy tahlilida alanin aminotransferaza (AlAT) fermenti klinik sogʻlomlariga qaraganda 1,2 E/l va

amilaza fermenti 4,6 E/l, mochevina  $2,85 \pm 0,11$  mmol/l, kreatinin  $5,47 \pm 0,24$  mkmol/l miqdorgacha oshgani, gepatoцитlarning zararlanishi va fermentlar funksiyasining o'zgarishi bilan bog'liqligi aniqlangan;

Tovuqlar kolibakteriozini oldini olish va davolashda "Oflosan" preparati o'z analoglaridan 1,28 marta, "Aliseryl WS" preparati esa 1,16 marta samarali ekanligi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

Tuxum yo'nalishidagi tovuqlar kolibakterioz bilan kasallanganda qondagi gematologik ko'rsatkichlari va biokimyoviy o'zgarishlari aniqlangan;

Farg'ona viloyati parrandachilik xo'jaliklarida Nyu'kasl kasalligiga qarshi emlangan tovuqlar qon zardobida immunofon ko'rsatkichlari aniqlangan, shuningdek emlamadan so'ng immun tizimidagi o'zgarishlar tufayli tuxum maxsuldorligi ma'lum darajada (5,33 foizga) kamayishi, hamda ikkilamchi kasallik sifatida kolibakterioz aniqlangan, uning klinik va patologoanatomik hamda qiyosiy o'zgarishlari ilmiy asoslangan;

Tovuqlar kolibakteriozini oldini olishda "Oflosan" va "Aliseryl WS" preparatlarining terapevtik samaradorligi aniqlangan;

Tovuqlar kolibakterioz kasalligining diagnostikasi va unga qarshi kurashish chora tadbirlari bo'yicha ilmiy asoslangan Tavsiyanoma ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, epizootologik, klinik, patologoanatomik, gematologik, biokimyoviy, bakteriologik, immunologik va kimyoviy usullardan foydalanib, boshlang'ich ma'lumotlarga biometrik ishlov berilganligi, shuningdek olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi hamda dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab ijobiy baholanganligi hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialining aprobatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy-tadqiqot natijalari ijobiy baholanib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tovuqlar kolibakteriozining epizootologik, bakteriologik, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlari (qiyosiy), gematologik va biokimyoviy hamda immunologik tahlillar asosida kasallikka tashxis qo'yish uslubi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tovuqlar kolibakterioziga dastlabki diagnoz qo'yish, epizootologik, klinik va patologoanatomik kechishi, boshqa o'xshash bakterial va parazitlar pulloroz va koksidiyoz kasalliklaridan farqlash, Farg'ona viloyati parrandachilik xo'jaliklari hamda xususiy sektorlarda tovuqlarda E.colini O1, O26 va O78 serotiplarini tarqalish darajasi, tovuq kolibakteriozni oldini olish va davolash uchun veterinariya mutaxassislariga kerakli chora tadbirlarni qo'llash bo'yicha "Oflosan" va "Aliseryl WS" antibiotik vositalaridan foydalanib, tajriba natijalarining ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalari berilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg'ona viloyati parrandachilik

xo'jaliklarida tovuqlar kolibakteriozining epizootologiyasi va oldini olish choralarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

«Tovuqlarning kolibakterioz kasalligiga qarshi kurashish chora-tadbirlari» nomli Uslubiy Tavsiyanoma Farg'ona viloyatining parrandachilik fermer xo'jaliklari va aholiga qarashli parrandalarga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 11-dekabrda 02/23-698-son ma'lumotnomasi). Natijada parrandalarning kolibakterioz kasalligiga qarshi samarali kurash va oldini olishga erishilgan.

Parrandalar kolibakterioz bilan zararlanganda qon namunalari dagi gematologik va biokimyoviy tekshirishlar asosida, kasallikning kechishida patologik to'qimalar bakteriologik, Nyu'kaslga emlanganlarida immunologik diagnostikasi joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 11-dekabrda 02/23-698-son ma'lumotnomasi). Natijada veterinariya va parrandachilik bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun parrandalarning kolibakterioz kasalligiga tezkor tashxis qo'yish imkoniyati yaratilgan.

Farg'ona tuman "Chimyon broyler", Tojixon Nihollari", Beshariq tumani "Sobirtepa parranda", "Ko'rkam fayz parranda", "Beshariq parranda", "Beshariq naslli parranda" MChJlari, "Ziyo Nur Fayz parranda" va "Otaboyev Xudoyberdi", Quvasoy tumani "Do'stlik parranda" va Dang'ara tumani "Meliqo'zi ota" fermer xo'jaliklaridagi parrandalarning kolibakterioz kasalligini davolash va oldini olish uchun *Oflosan* va *Aliseryl WS* preparatlari joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 11-dekabrda 02/23-698-son ma'lumotnomasi). Natijada parrandalarning kolibakteriozini oldini olish va davolashda foydalanilgan preparatlarning iqtisodiy samaradorligi 1 so'm xarajatga 5,1 so'm samara keltirishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan. Shuningdek 2022-2024-yillar davomida Farg'ona viloyati parrandachilik xo'jaliklari va xususiy tadbirkorlar orasida seminarlar hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali mutaxassislari tomonidan har yilgi aprobatsiyasida ko'rigidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 4 ta xorijiy, 2 ta Respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va

zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqotning vazifalari, tadqiqotning ob'ekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida «**Tovuqlar kolibakteriozining epizootologiyasi**» deb nomlangan birinchi qismda kolibakterioz kasalligining tarqalishi va kelib chiqish sabablari, shuningdek uning boshqa virusli va bakterial kasalliklar bilan birgalikda uchrashi, uning oqibatlari, qo'zg'atuvchilarning xususiyati borasidagi xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon qilingan.

Adabiyot manbaalari tahliliga ko'ra, tovuqlarda kolibakterioz kasalligining tarqalishi asosan kasallikka moyil parrandalarning oshqozon ichak tizimiga tashqi muxitdan bakterianing alimentar va boshqa yo'llar bilan kirishi natijasida hosil bo'lishi, organizmga tushgan bakteriya qonda va ichki a'zolarida ko'payib, ba'zan surunkali klinik xususiyatlarini namoyon etishi, kasallik yuqqanidan so'ng 8-10 kun ichida qonda juda ham past antitelolar titri hosil bo'lishi yoritilgan. Parrandachilik sanoatida kolibakterioz kasalligi 64 foiz uchrasa, umumiy infeksiyon kasalliklar ichida esa 50-60 foizni tashkil etishi haqida fikrlar keltirilgan. «**Tovuq kolibakteriozi qo'zg'atuvchisining biologik xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi qismda E.colining morfologik jihatdan tuzilishi, uning aynan o'ziga xos bo'lgan biologik va biokimyoviy xususiyatlari haqida firk yuritilgan. Bundan tashqari mazkur qismda qo'zg'atuvchining fizik kimyoviy xususiyatlari, endotoksinlarining patogenlik ta'sir doirasi bo'yicha, enteretik, neyrotrop, eritrotsitlarni gemoliz qilish xususiyatlari haqida fikrlar keltirilgan. E.coli boshqa tur bakteriyalar kabi o'z biologik tuzilishi jihati bilan ajralib turishi, qishloq xo'jalik hayvonlari, ayniqsa yosh hayvonlar organizmida ko'p holatlarda birlamchi kasallik sifatida qayd qilinsada, boshqa holatlarda bakteriya va virusli kasalliklar bilan birga aralash kelishi haqidagi ilmiy manbaalarning ma'lumotlari berilgan. Kolibakterioz qo'zg'atuvchisi va ularning serotiplari ekologik jihatdan moslashib kelayotgan mikroorganizmlar safida bo'lib, evolyusiya taraqqiyotida faoliyatini davom ettirib kelayotgan organizm sifatida uning serqirra xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. «**Tovuqlar kolibakteriozining antibiotiklarga sezuvchanligi**» deb nomlangan uchinchi bo'limda bir qancha turdagi antibiotik vositalarning uzoq muddatga foydalanilishi E.colining shtamm turlariga nisbatan chidamlilikni ortishi va doimiy ravishda foydalanish moslashuvchanlik evaziga antibiotik turlariga qarshiligi ortishiga sababchi bo'lishi haqidagi ilmiy echimga ega ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari mikroorganizmlar uchun antibiotiklardan doimiy foydalanish turlar evolyusiyasida populyatsiya chidamliligini ortishiga olib kelishi, ba'zi tur antibakterial vositalar A.Flegen kashfiyoti bilan izohlandi. Shuning bilan birga bu antibakterial preparatlar

tovuqlarda tuxum qo'yishni stimullashda va o'sish gormonlariga ta'sirchanligi asosida turlar bo'yicha xilma-xilligi yoritilgan. «**Tovuq kolibakteriozining klinik belgilari va patomorfologiyasi**» deb nomlangan to'rtinchi qismda infeksiyadan zararlangan parrandalar letargik holga kelishi, ko'pincha shishgan ko'z qovoqlari va lakrimatsiyaning kuchayishi bilan o'rtacha va og'ir kon'yunktivitni namoyon qiluvchi klinik belgilar haqida ma'lumot keltirilgan. Parrandalarda shovqinli ovozning hosil bo'lishida traxeyada ivib, tiqilib qolgan qon qoldiqlari chiqib ketish jarayonida g'ichirlash hisobidan shovqin suronli klinik belgilar kuzatiladi. Laringotraxeit bilan zararlanib, nobud bo'lgan tovuqlar patoanatomik tekshirilganda traxeya shilliq qavatining yallig'lanishi, unda shish hosil bo'lishi, ma'lum qismida kataral-gemorragik ekssudat to'planishi, qisman traxeyaning ba'zi joylarida qon nuqtali quyilishlar uchrashi, ba'zi tovuqlarda taloqning kattalashi, ingichka ichakda gemorragik, фабрициу xaltasi va qon tomirlar devorlarining o'tkazuvchanligi oshish hisobiga shilliq osti, seroz osti qavatlarida dog'li qon quyilishlar aniqlangan. O'lgan tovuqlarni patologoanatomik tekshirilganda kon'yuktivada, traxeya bo'shlig'ida yallig'lanish va ekssudat mavjudligi aniqlangan. Ushbu qismda tovuqlar kolibakteriozining klinik belgilari va patomorfologik o'zgarishlari batafsil yoritilgan. «**Tovuq kolibakteriozini oldini olishda maxsus va kimyo profilaktika usullari**» deb nomlangan beshinchi qismida umumiy va maxsus, immunoprofilaktikalar haqida fikrlar keltirilgan. Tovuqlarni hayoti daomida immunitetini vaksinalar yordamida kuchaytirish ularga immunostimulyatorlar qo'shib yanada samaradorligini oshirish haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Tovuqlarni emlashda foydalanilgan tirik vaksinalarning bakteriya va viruslarga ta'siri, inaktivatsiyalangan vaksinalarni kasallik keltirib chiqarmaslik ayniqsa saqlab qolish mexanizmlari yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**Xususiy tadqiqotlar**» deb nomlangan ikkinchi bobida «**Tadqiqot materiallari va uslublari**» keltirilgan bo'lib, bunda tadqiqot joyi, ob'ekti va uslublari haqida bayon etilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari 2022- 2024 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Parazitar va yuqumli kasalliklar kafedrasida, Toshkent tibbiyot akademiyasining mikrobiologiya va immunologiya kafedrasida hamda Farg'ona viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazining IFA va PZR laboratoriyasida, Farg'ona viloyatining parrandachilikka ixtisoslashgan, MChJ va shaxsiy xo'jaliklarda o'rganilgan. Jami viloyatning xo'jaliklarida mavjud 101100 boshdan ortiq parrandalardan 54280 bosh tovuq klinik ko'rikdan o'tkazilib, ushbu xo'jaliklardan jami 943 bosh tovuqlarda kolibakterioz kasalligining tarqalishi, nam iqlim sharoitida tovuq kolibakteriozining klinik va patomorfologik tashxislash, klinik, gematologik o'zgarishlar va emlangan parrandalarda vaksina immunofoni hamda uning kolibakterioz bilan assoziativ kechishi va undagi patomorfologik o'zgarishlarini aniqlash, bakteriologik va virusologik uslublarda tekshirilib bayon etilgan (1-jadval).

Dissertatsiyaning «**Tovuq kolibakteriozining Farg'ona mintaqasida tarqalishi va omillari**» deb nomlangan uchinchi bobida uch yil davomida (2022-2024 yillar) xo'jaliklarda jami 54280 bosh parrandalar tekshirilib, shundan 2300

bosh parrandalarning ichki a'zolari patologoanatomik, bakteriologik va virusologik tekshirishlardan o'tkazilgan.

### 1-jadval

#### Farg'ona viloyat parrandachilik xo'jaliklarida 2022- 2024-yillarda tovuqlar kolibakteriozining epizootologik holatini o'rganish natijalari

T/r	Xo'jalik nomi	Parranda turi va yoshi (hafta)	Parranda soni (bosh)	Kasallar soni		Shu jumladan o'lgani		Tekshirish natijalari
				bosh	%	bosh	%	
1.	Beshariq tumani "Sobirtepa parranda" MChJ	Tovuq 75-100	24600	84	0,34	18	0,073	Kolibakterioz
2.	Beshariq tumani "Otaboyev Xudoyberdi" xususiy korxonasi	Tovuq 25-55	4850	51	1,05	23	0,47	Kolibakterioz
3.	Beshariq tumani "Ko'rkam fayz parranda" MChJ	Tovuq 20-75	12400	43	0,35	16	0,13	Kolibakterioz
4.	Beshariq tumani "Ziyo Nur Fayz parranda" xususiy korxonasi	Tovuq 25-75	1300	16	1,23	9	0,69	Kolibakterioz
5.	Beshariq tumani "Beshariq parranda" MChJ	Tovuq 18-65	16000	72	0,45	49	0,31	Kolibakterioz
6.	Beshariq tumani "Beshariq naslli parranda" MChJ	Tovuq 35-90	3500	96	2,74	27	0,77	Kolibakterioz
7.	Farg'ona tumani "Chimyon broyler" MChJ	Tovuq 25-85	4800	71	1,48	26	0,54	Kolibakterioz
8.	Farg'ona tumani "Tojixon Nihollari" fermer xo'jaligi	Tovuq 20-65	870	28	3,22	7	0,8	Kolibakterioz
9.	Quvasoy tumani "Do'stlik parranda" fermer xo'jaligi	Tovuq 28-45	1380	54	3,91	19	1,38	Kolibakterioz
10.	Dang'ara tumani "Meliqo'zi ota" fermer xo'jali	Tovuq 31-68	12700	114	0,9	69	0,54	Kolibakterioz
11.	Quvasoy tumani "Quvasoy parranda Fayz" fermer xo'jaligi	Tovuq 32-76	18000	265	1,47	94	0,52	Kolibakterioz
12.	Furqat tumani "Ipak yo'li parranda" fermer xo'jaligi	Tovuq 45-95	700	49	7	21	3	Kolibakterioz
<b>Jami;</b>			<b>101100</b>	<b>943</b>	<b>0,93</b>	<b>378</b>	<b>0,37</b>	

Farg'ona viloyatining tumanlari kesimida olib borilgan tadqiqotlarda viloyatning "Hayvon kasalliklariga tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi" bakteriologiya, IFA va PZR laboratoriyalari tomonidan qon

zardoblari va patologik namunalarda aniqlangan tovuqlar kolibakterioz qo'zg'atuvchisi qayd etilganli natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Dissertatsiya rejasi bo'yicha tadqiqotlarning laboratoriyaviy qismi Farg'ona viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazining IFT va PZR va bakteriologiya laboratoriyalarida olib borilgan. Tovular kolibakteriozining epizootologik holati Farg'ona viloyati tumanlar kesimida aniqlangan. Buning uchun viloyatning Farg'ona tuman "Chimyon broyler" Beshariq tumani "Sobirtepa parranda", "Ko'rkam fayz parranda", "Beshariq parranda", "Beshariq naslli parranda" MChJlari, Farg'ona tumani "Tojixon Nihollari", Quvasoy tumani "Do'stlik parranda" va Dang'ara tumani "Meliqo'zi ota" fermer xo'jaliklarida, Beshariq tumani Xo'jaqo'rg'on qishlog'ida mavjud aholiga tegishli parrandalarda, Farg'ona viloyati hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazining ilmiy-tajriba laboratoriyasida shuningdek xususiy tadbirkorlar Beshariq tumani "Ziyo Nur Fayz parranda" va "Otaboyev Xudoyberdi" xo'jaliklarining jami 101100 bosh tuxum olish uchun boqiladigan tovuqlarda tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra tekshirilgan qon zardoblari va patologik namunalar tekshirilganda Beshariq tumanining xususiy tadbirkorlari "Ziyo Nur Fayz parranda" va "Otaboyev Xudoyberdi" xo'jaliklarida 1,05-1,23 foizgacha, Beshariq tumanining "Sobirtepa parranda" MChJda 0,34 %, "Ko'rkam fayz parranda" MChJda 0,35 %, "Beshariq naslli parranda" MChJda 2,74 %, "Beshariq parranda" MChJda 0,45 %, Farg'ona tumani "Chimyon broyler" MChJda 1,48 %, "Tojixon Nihollari" fermer xo'jaligiga tegishli tovuqlarda 3,22 %, Quvasoy tumani "Do'stlik parranda" fermer xo'jaligida 3,91 %, "Quvasoy parranda fayz" fermer xo'jaligida 1,47%, Dang'ara tumani "Meliqo'zi ota" fermer xo'jaligi tovuqlarida 0,9 % va Furqat tumani "Ipak yo'li parranda" fermer xo'jaligida 7 foizgacha tovuqlar kolibakteriozi mavjudligi aniqlangan.

**"Farg'ona viloyati sharoitida tovuqlar kolibakteriozining klinik belgilari"** deb nomlangan qismda Farg'ona viloyatining nam iqlim sharoitidagi bir nechta tumanlarida mavjud parranchilik xo'jaliklari va aholiga tegishli xususiy sektorlardagi tovuqlarda kolibakteriozni klinik belgilaridagi o'zgarishlar 2022-2024 yillar davomida o'rganildi.

Farg'ona tumani "Chimyon broyler" MChJ, parrandachilik fabrikasida va Quvasoy tumani "Do'stlik parranda" fermer xo'jaligi, Beshariq tumani xususiy tadbirkorlarining "Ziyo Nur Fayz parranda" xo'jaliklarida tovuqlar kolibakteriozi infeksiyasidan zaralangan tovuqlarda komatoz holga kelishi, ko'pincha 25 haftalik tovuqlarning ko'z qovoqlarida shish va ko'zidan tinimsiz yosh oqishi, o'tkir yringli kon'yuktivitni namoyon bo'lishi, xirillagan ovozning paydo bo'lishi, traxeyada ivib, tiqilib qolgan qon qoldiqlarini chiqib ketishi, xirillash kabi klinik belgilari kuzatildi.

Beshariq tumani "Sobirtepa parranda" MChJ fermer xo'jaligida mavjud parrandalarda kolibakteriozning yarim o'tkir shaklida dastlab kasallangan tovuqlar kam harakatli bo'lib, o'ziga xos nafas qisilishi namoyon bo'lishi kuzatilgan bo'lsa, 10-12 kun o'tgach tana haroratida qisman o'zgarish paydo bo'ldi. Traxeya yo'li qon va yiringli ekssudat bilan to'lishdi, uning natijasida nafas olishning qiyinlashishi va

ovozning bo'g'iq xirillagan chiqishiga olib kelgan klinik belgilar (ba'zi yosh jo'jalarda ham kuzatildi) tadqiqotlar davomida kuzatildi. Beshariq tumani "Otaboyev Xudoyberdi" xususiy korxonasi qaramog'ida mavjud tovuqlarda kolibakteriozining o'tkir shaklida traxeya va ko'zning epiteliy qatlamini jaroxatlanishi, yosh parrandalarda esa traxeyaning shilliq qatlamidan qon ketish gemorragik yallig'lanish, qon quyilish kabi kliniko-patologik o'zgarishlar aniqlandi. Shunday qilib, xulosa qilib aytish mumkinki, tovuqlar kolibakteriozi bilan zararlangan parrandalar (tovuq va jo'jalarda) ko'zning ichki qavatida yiringli ekssudat bilan burundan shilliq yiring oqishi, traxeya va bronxlarda ham chuqur jaroxatlar, halqum va shilliq qavatida sariq yiringli ekssudat va qon quyqalari tiqilishidan turli darajadagi to'siqlar (tiqin) hosil bo'lishi kuzatildi. Ba'zan esa ko'z olmasi, shox pardaning shikastlanishi, sinusit, rinit, ko'rish pardalarida kazeoz massaning to'planishi kabi klinik belgilar aniqlandi.

**"Tovuq kolibakteriozida patologoanatomik o'zgarishlar va qiyosiy tashxis qo'yish"** deb nomlangan qismida Farg'ona viloyati "Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi"ning bakteriologiya laboratoriyasi tomonidan patologik namunalarda E.coli qo'zg'atuvchisi aniqlangan tovuqlarda quyidagi patologoanatomik o'zgarishlar aniqlandi; kasallikning surunkali shaklida ko'pchilik tovuqlarda fibrinli perikardit, a'erosakkulit, jigar gepatodlarida perigepatit (Furqat tumani "Ipak yo'li parranda" fermer xo'jaligida 700 bosh tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning 49 boshida), Quvasoy tumanining "Do'stlik parranda" fermer xo'jaligida 28-45 haftalik tovuqlarni 1380 boshi klinik ko'rikdan o'tkazildi. Shu xo'jalikda 54 bosh tovuqlar kolibakterioz bilan kasallangan bo'lib, ularda o'lim koeffitsienti 1,38 foizga ya'nni 19 bosh tovuqlarda yurak atrofida fibrinogen perikardit shakllangan, ayrimlarida jigarni ostki qismida gemorragiya holati kuzatilib, fibrin qobiq bilan qoplanib qolgan hamda qoplama osongina ajraldi. Jigar po'st parenximasi distrofiyaga uchrashi kabi klinik belgilar nomoyon bo'ldi.

Kolibakterioz bilan kasallangan boshqa xo'jaliklarda biopsiya qilingan tovuqlarning shilliq pardalarida anemiya, och-sariq rangda ich ketish, oriqlash, ingichka va yo'g'on ichak bo'limlarining shilliq pardalarida yarachalar paydo bo'lishi, qon tomirlar devorlarining o'tkazuvchanligini ortishi natijasida sodir bo'lgan bir nechta tovuqlar o'rganildi. Tovuq kolibakteriozini xo'jaliklarda mavjud kasalliklarga nisbatan qiyosiy tashxislashda (pulloroz va koksidiolarda) kasallikning surunkali kechishi oqibatida parenximatoz a'zolarda nekroz, kuchli ich ketish, komatoz holatlar, ingichka, yo'g'on va ko'r ichaklardagi yallig'lanishlar, ayniqsa katta yoshli tovuqlarning tuxumdon funksiyasini buzilishi, sariq peritonit, taloq va jigardagi o'xshash o'zgarishlar hamda yurakdagi nekrotik jarayonlar bir-biriga o'xshash holatlarni takrorlashi aniqlangan. Mazkur kasalliklarning har uchallasida ham yurakda qon quyilish, perikarditning fibrin massa to'plashi, shu holat jigar, taloq va o'pkada ham har qanday yoshdagi tovuqlarda kuzatilishi o'rganildi.

Yo'g'on ichak va ingichka ichaklar qizarib nuqtasimon qon quyilishlar, faqat koksidiolarda ushbu holatdan tashqari koksidiyalarni kuzatilishi, ko'r ichakda ko'kimtir qora rangli tvorogsimon massa yig'ilib turishi haqida batafsil

ma'lumotlar keltirilgan.

**“Tovuq kolibakteriozida gematologik o'zgarishlar”** deb nomlangan qismdagi asosiy tajribalar tovuqlarda kolibakterioz kasalligi aniqlangan. Farg'ona viloyati parrandachilik xo'jaliklaridan keltirilgan qon namunalarning tahlili Toshkent tibbiyot akademiyasining Mikrobiologiya va Immunologiya ilmiy markaz xodimlari bilan birgalikda bajarildi. Parrandalar qanot osti venasidan aseptika va antiseptika qoidalariga amal qilingan holda qon olinib, tekshirishlar natijasida tovuqlar kolibakteriozida qondagi leykoцитlar va eritroцитlar sonining ko'payib borishi, leykoformulaning nisbatan o'zgarishi qayd etilgan bo'lsa, tabiiy sharoitda laringotraxeit bilan zararlangan parrandalar qonida leykoцитlar sonining dastlabki kunlaridan me'yorga nisbatan 0,82 foizga oshgani aniqlandi.

